

## **«Asaka» bank (OAJ) Boshqaruvining kengaytirilgan majlisida bankning 2012 yil faoliyati yakunlari muhokama etildi**

“Asaka” bank (OAJ) Boshqaruvi qayd etadiki, bankning 2012 yildagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 yanvardagi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan 2012 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalarni ijrosini ta‘minlashga qaratildi.

Xozirgi kunda bankning respublikamiz bo‘yicha 26 ta filiali va 112 ta minibanki orqali 32 mingga yaqin turli mulkchilik shaklidagi ho‘jalik yurituvchi subektlar, kichik biznes vakillari, hususiy tadbirkorlar, dehqon va fermer ho‘jaliklariga samarali xizmat ko‘rsatilmoqda.

2012 yil davomida bank jami aktivlari 20,8 %ga o‘ydi va 2013 yil 1 yanvar holatiga 4,3 trln.so‘mni tashkil qildi. Daromad keltiruvchi aktivlar 2,7 trln. so‘mni tashkil qilib, umumiy aktivlarni 62,5%ni tashkil etdi. Bank jami kapitali 20%ga o‘ydi va 586,5 mlrd. so‘mga yetkazildi.

2013 yil 1 yanvar holatiga bank kredit qo‘yilmalarining hajmi 1,85 trln. so‘mni tashkil etdi, shundan 1,33 trln.so‘mi investitsiyaviy kreditlardir. Kredit qo‘yilmalarning 1,5 trln. so‘mi (kredit portfelining 83,5%i) uzoq muddatli kreditlarni tashkil etadi.

Bank tomonidan 2012 yil davomida respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalari rivojlanishiga 1,1 trln.so‘m miqdorida kreditlar ajratildi va buning natijasida 30 ming nafarga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 565,1 mlrd.so‘m miqdorida kreditlar ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2012 yildagi Investitsion Dasturiga muvofiq investitsion loyihalarni moliyalashtirishga 168,0 mlrd.so‘m miqdorida kreditlar ajratildi.

Sanoat kooperasiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, shuningdek mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirishni rag‘batlantirish, eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish, tarmoqlararo va ichki tarmoq sanoat kooperasiyasini rivojlantirish hamda mustahkamlash va shu asosda aholi bandligi o‘shirishni ta‘minlash va uning moddiy farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyuldagi va 2012 yil 31 yanvardagi Qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida 57,0 mlrd.so‘m miqdoridagi investitsion loyihalar moliyalashtirildi.

Respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlariga yo‘naltirilayotgan sarmoyalarning salmoqli qismi kichik biznes va hususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Mazkur sohaga ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va texnologik yangilash, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy, innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etish va boshqa maqsadlar uchun 2012 yilda berilgan kreditlarning umumiy hajmi 526,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, kichik korxonalar, mikrofirmalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan mikrokreditlar hajmi 33,4 mlrd.so‘mni tashkil qildi. Shunga mos

ravishda yosh oilalarga biznes faoliyatini yo'lga qo'yish, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrokreditlar hajmi 3,8 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Prezidentimizning 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga asosan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan qayta ishlovchi ihcham korhonalarni barpo etish, ichki istemol bozorini yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish maqsadida 113,9 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida ko'plab yangi ish joylari ochilib, aholining, ayniqsa, qishloq odamlarining bandligi taminlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2009 yil 28 yanvarda imzolangan "Mahalliy nooziq-ovqat istemol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga binoan 93,2 mlrd. so'm miqdorida kreditlar berildi. Bu sarmoyalar raqobatbardosh nooziq-ovqat istemol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlashni o'zlashtirish kabi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Iqtisodiyotimizda tobora mustahkam o'rin egallayotgan kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va xunarmandchilikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 3,6 mlrd. so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 80,2 mlrd. so'm, tadbirkor ayollarning loyihalarini moliyalashtirish uchun 42,6 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Shuningdek, bankning Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi hisobidan kichik biznes subektlariga berilgan kreditlar hajmi 8,1 mlrd.so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini taminlash bo'yicha bank tomonidan faol ishlar olib borildi. Bugungi kunda bank tomonidan balansga qabul qilingan 45 ta bankrot-korhonadan 38 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korhonalarda negizida bankning 13 ta sho'ba korhonasi tashkil etildi. Iqtisodiy nochor korhonalarda ishlab chiqarishni tiklash, ularni modernizatsiyalash va zarur aylanma mablag'lar bilan taminlash maqsadida bank tomonidan jami 91,4 mlrd. so'm miqdorida investitsiya mablag'lari kiritildi. Buning natijasida 4 256 nafar ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korhonalardan tomonidan 187,4 mlrd.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi, 35,2 mln.AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

Pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini ijrosini taminlash maqsadida aholi bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb etish bo'yicha bank tomonidan faol ishlar olib borildi. Bank tomonidan xozirgi kunda mijozlar uchun 80 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy etilgan. 2012 yil davomida qo'shimcha 14 ta yangi omonat turlari ochildi. Naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari miqdori 2012 yilda 46,0 mlrd.so'mga o'sdi va 2013 yil 1 yanvar holatiga 310,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Omonatchilar soni 100 ming nafardan ziyodga ko'paydi va 1 140 ming nafarga etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini ijrosini taminlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borildi. Bank tomonidan mijozlarga 1080,7 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi. 8 889 ta terminal, 35 ta bankomat va 45 ta infokiosk o'rnatildi. 6 792 ta korhona va tashkilotlarda ish haqi loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham kengaydi. 2012 yil mobaynida savdo aylanmalari miqdori 990,2 mlrd so'mni tashkil qildi.

“Xalqaro plastik kartochkalar (“MasterCard”) orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi”ni kengaytirish bo'yicha ishlar davom ettirildi. Bank tomonidan chiqarilgan xalqaro plastik kartochkalar soni 110 ming donadan oshib ketdi.

“Asaka” bank (OAJ)ning 2013 yildagi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor vazifalarini izchil amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013 yil 19 yanvardagi qarorida belgilab berilgan bankning barqarorligini mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish, aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilishni ko'paytirish, bank aktivlari va kredit portfeli sifatini yaxshilash, “Obod turmush yili” Davlat dasturi ijrosini taminlash hamda bankning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada faollashtirishga qaratiladi.